Аннотация: В данной статье проводится комплексный анализ педагогических и психологических основ развития "Seven Skills" (навыков XXI века) в условиях дистанционного обучения, являющегося одним из приоритетных направлений современной образовательной системы. В исследовании научно обосновывается необходимость формирования у студентов таких ключевых компетенций, как критическое и аналитическое мышление, эффективная коммуникация, сотрудничество, креативность, умение решать проблемы, цифровая грамотность и навыки саморазвития, посредством внедрения дистанционных образовательных технологий в системе высшего образования в условиях цифровизации и глобализации. В статье раскрываются педагогические возможности дистанционного обучения, включая использование интерактивных методов, цифровых образовательных платформ и адаптивных моделей обучения, в контексте развития "Seven Skills". Наряду с этим анализируются основные психологические факторы, влияющие на учебную деятельность студентов в дистанционной образовательной среде, в том числе внутренняя и внешняя мотивация, способность к саморегуляции и рефлексии, механизмы социального взаимодействия, эмоциональная устойчивость и формирование ответственности за результаты обучения. Результаты исследования свидетельствуют о том, что интеграция педагогических и психологических подходов в дистанционном обучении обеспечивает эффективное развитие навыков XXI века. Представленные выводы имеют важное научно-практическое значение для повышения качества цифрового образования и подготовки конкурентоспособных, самостоятельных и профессионально компетентных специалистов в системе высшего образования.

Ключевые слова: дистанционное обучение, Seven Skills, навыки XXI века, педагогические основы, психологические факторы, современные компетенции, цифровая грамотность, сотрудничество, креативность.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida ta'lim tizimi doimiy ravishda yangilanib, ijtimoiy-iqtisodiy, texnologik hamda madaniy o'zgarishlarga moslashib bormoqda. XXI asrda globallashuv jarayonlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi hamda raqamli iqtisodiyotning shakllanishi ta'lim tizimi oldiga yangi talab va vazifalarni qo'yimoqda. Xususan, oliy ta'lim tizimida bilim berishdan ko'ra, shaxsning hayotiy va kasbiy faoliyatida zarur bo'lgan universal kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor yo'nalishga aylanmoqda. Ushbu jarayonda "Seven Skills" yoki XXI asr ko'nikmalari sifatida e'tirof etilayotgan tanqidiy fikrlash, samarali muloqot, hamkorlik, ijodkorlik, muammolarni hal etish, raqamli savodxonlik hamda o'zini o'zi rivojlantirish kabi kompetensiyalar alohida ahamiyat kasb etmoqda.

So'nggi yillarda masofaviy ta'lim shakllarining keng joriy etilishi ta'lim mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllarida tub o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida masofaviy ta'limning global miqyosda asosiy o'qitish shakliga aylanishi natijasida uning pedagogik imkoniyatlari va cheklovlarini ilmiy jihatdan o'rganishga bo'lgan ehtiyoj keskin ortdi. Masofaviy ta'lim nafaqat ta'limning uzluksizligini ta'minlash, balki talabalar mustaqilligini oshirish, individual o'qish traektoriyalarini shakllantirish hamda raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Shu bilan birga, mazkur ta'lim shakli talabalar shaxsining motivatsion, emotsional-irodaviy va ijtimoiy jihatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishi bilan ajralib turadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'lim jarayonida bilimlarni egallashdan ko'ra, kompetensiyalarning shakllanishi murakkab pedagogik va psixologik mexanizmlar bilan belgilanadi. Xususan, talabalar o'quv faoliyatida o'zini o'zi boshqarish, vaqtni rejalashtirish, refleksiya, ichki motivatsiya va mas'uliyat kabi sifatning rivojlanishi masofaviy ta'lim samaradorligining muhim ko'rsatkichlari hisoblanadi. Shu bois, "Seven Skills"ni masofaviy ta'lim sharoitida rivojlantirish masalasi nafaqat didaktik muammo, balki pedagogik psixologiya nuqtai nazaridan ham kompleks yondashuvni talab etadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, "Seven Skills"ni rivojlantirish o'quv jarayonida faol, interaktiv va talaba markazli metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Masofaviy ta'lim muhitida bu jarayon raqamli platformalar, virtual muhokamalar, loyiha asosida o'qitish, kollaborativ topshiriqlar hamda muammoli vaziyatlar orqali amalga oshiriladi. Biroq mazkur metodlarning samaradorligi talabalar psixologik tayyorgarligi, o'qishga bo'lgan motivatsiyasi va ijtimoiy o'zaro ta'sir darajasi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli, pedagogik va psixologik omillarni uyg'unlashtirgan holda masofaviy ta'limni tashkil etish XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlar va strategik dasturlarda ham raqamli ta'limni rivojlantirish, masofaviy ta'lim shakllarini takomillashtirish hamda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu esa oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim orqali talabalar kompetensiyalarini, xususan "Seven Skills"ni rivojlantirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etishni dolzarb vazifaga aylantiradi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, masofaviy ta'lim sharoitida "Seven Skills"ni rivojlantirish masalasi ko'plab tadqiqotlarda alohida kompetensiyalar doirasida o'rganilgan bo'lsa-da, ularning pedagogik va psixologik asoslarini integrativ yondashuv asosida tizimli tahlil



qilish yetarli darajada yoritilmagan. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada masofaviy ta'lim jarayonida "Seven Skills"ni rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash, pedagogik imkoniyatlarni ochib berish hamda psixologik omillarning o'rni va ta'sirini tahlil qilish asosiy maqsad sifatida belgilandi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida masofaviy o'qitish jarayonini takomillashtirish, talabalarda XXI asr ko'nikmalarini samarali shakllantirish hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi bilan ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot masofaviy ta'lim jarayonida "Seven Skills" (XXI asr ko'nikmalari)ni rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda kompleks va integrativ metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogika, pedagogik psixologiya hamda ta'lim texnologiyalari sohasidagi nazariy va empirik metodlar uyg'un holda qo'llanilib, o'rganilayotgan muammoning mazmun-mohiyatini har tomonlama yoritish maqsad qilib olindi. Tadqiqot tavsifiy-tahliliy va empirik dizayn asosida tashkil etilib, nazariy qismida masofaviy ta'lim va XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirishga oid ilmiy manbalar, xalqaro va milliy tadqiqotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Empirik qismda esa oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim jarayonida talabalarining "Seven Skills"ni rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan pedagogik kuzatuv, so'rovnoma va tahliliy metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bakalvriat bosqichi talabalar ishtirok etdi hamda ishtirokchilar masofaviy ta'lim platformalaridan (Learning Management System – LMS, videokonferensiya vositalari, raqamli ta'lim resurslari) faol foydalanuvchi bo'lgan talabalar orasidan tanlab olindi. Tanlov jarayonida talabalar yo'nalishi, o'quv bosqichi va masofaviy ta'limda ishtirok etish tajribasi inobatga olinib, bu holat tadqiqot natijalarining ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi. Tadqiqot davomida masofaviy ta'lim, "Seven Skills" va XXI asr kompetensiyalariga oid ilmiy adabiyotlarni o'rganish va tizimlashtirishga qaratilgan nazariy tahlil va umumlashtirish metodi, masofaviy ta'lim jarayonida talabalarining o'quv faolligi, hamkorlik darajasi, kommunikativ faoliyati va ijodiy yondashuvlarini aniqlashga xizmat qiluvchi pedagogik kuzatuv metodi, shuningdek talabalarining tanqidiy fikrlash, raqamli savodxonlik, o'zini o'zi boshqarish hamda motivatsiya darajasini aniqlashga qaratilgan so'rovnoma (anketa) metodi qo'llanildi. Bundan tashqari, masofaviy ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan pedagogik metodlarning "Seven Skills"ni rivojlantirishdagi samaradorligini baholash uchun taqqoslash va tahlil metodlari hamda talabalarda XXI asr ko'nikmalarining shakllanish darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika metodidan foydalanildi.

Tadqiqotda ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash jarayonida raqamli ta'lim platformalari, onlayn so'rovnoma vositalari (Google Forms), elektron o'quv materiallari va masofaviy muloqot texnologiyalaridan foydalanildi hamda so'rovnoma savollari "Seven Skills"ning asosiy komponentlari – tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik, ijodkorlik, raqamli savodxonlik, muammolarni hal etish va o'zini o'zi rivojlantirish ko'nikmalarini qamrab oldi. Yig'ilgan empirik ma'lumotlar sifat va miqdoriy tahlil asosida qayta ishlanib, ularning pedagogik va psixologik talqini berildi, natijalarni tahlil qilishda foizli ko'rsatkichlar, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi va olingan ma'lumotlar masofaviy ta'lim jarayonida pedagogik hamda psixologik omillarning "Seven Skills"ni rivojlantirishga ta'sirini aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot jarayonida akademik halollik tamoyillariga qat'iy rioya qilindi. Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari maxfiy saqlanib, so'rovnomalarda ixtiyoriylik va anonimlik ta'minlandi. Tadqiqot natijalaridan faqat ilmiy maqsadlarda foydalanildi. Masofaviy ta'lim jarayonida "Seven Skills"ni rivojlantirishning pedagogik va psixologik tahlili. Tadqiqot natijalari masofaviy ta'lim muhitida talabalarda XXI asr ko'nikmalarining ("Seven Skills") shakllanish darajasini aniqlashga qaratilgan empirik va nazariy tahlil asosida olindi. Tadqiqotda oliy ta'lim muassasalarining 150 nafar talabalar ishtirok etdi. Ma'lumotlar so'rovnoma, pedagogik kuzatuv hamda raqamli platformalar faoliyatini tahlil qilish orqali yig'ildi. So'rovnoma natijalari shuni ko'rsatdiki, masofaviy ta'lim jarayonida tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalari yuqori darajada rivojlangan. Talabalarining 68% murakkab masalalarni mustaqil tahlil qilishga qodir ekanligini bildirgan. Pedagogik kuzatuvlar jarayonida interaktiv mashg'ulotlar va loyiha asosida o'qitish tanqidiy fikrlashni sezilarli darajada rivojlantirishini ko'rsatdi.

1-jadval: Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish

Ko'nikma	Yuqori daraja (%)	O'rta daraja (%)	Past daraja (%)
Tanqidiy fikrlash	68	25	7
Muammolarni hal etish	62	28	10



Masofaviy ta'lim jarayonida talabalar o'rtasida kommunikatsiya va hamkorlik ko'nikmalarini shakllantirish interaktiv forumlar, videokonferensiyalar va kollaborativ loyihalar orqali amalga oshiriladi. So'rov natijalariga ko'ra, talabalarning 72 % i o'z fikrini erkin ifodalash hamda guruh bilan samarali ishlash qobiliyatini rivojlantirgan. Pedagogik kuzatuvlar hamkorlik jarayonida va guruh ichidagi vazifalarni bajarishda talabalarning faol ishtirok etayotganini tasdiqladi.

2-jadval: **Kommunikatsiya va hamkorlik**

Ko'nikma	Yuqori daraja (%)	O'rta daraja (%)	Past daraja (%)
Kommunikatsiya	72	20	8
Hamkorlik	70	22	8

Talabalar ijodkorlik va innovatsion yondashuv ko'nikmalarini masofaviy loyiha ishlari, bloglar va veb-portfoliolar orqali amalga oshirilgan amaliy mashg'ulotlar asosida rivojlantirdilar. So'rov natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning 65 % i o'z ijodiy fikrini yangi g'oyalar yaratishda qo'llay oladi, 23 % ida esa ushbu ko'nikmalar o'rta darajada rivojlangan.

3-jadval: **Ijodkorlik va innovatsion yondashuv**

Ko'nikma	Yuqori daraja (%)	O'rta daraja (%)	Past daraja (%)
Ijodkorlik	65	23	12

Raqamli platformalarda faol ishlash natijasida talabalar raqamli savodxonlikni rivojlantirdi. Talabalarning **75 %**i turli ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish qobiliyatini egallagan. Pedagogik kuzatuv esa talabalarning raqamli vositalarni topshiriqlarni bajarish jarayonida faol qo'llayotganini ko'rsatdi.

4-jadval: **Raqamli savodxonlik**

Ko'nikma	Yuqori daraja (%)	O'rta daraja (%)	Past daraja (%)
Raqamli savodxonlik	75	18	7

Psixologik asoslar va motivatsiya

Masofaviy ta'lim jarayonida talabalarning motivatsiyasi, o'zini o'zi boshqarish hamda ijtimoiy o'zaro ta'sir ko'rsatkichlari pedagogik samaradorlikni belgilovchi muhim omillar sifatida aniqlandi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, talabalarning 70% i o'quv faoliyatini mustaqil boshqarish qobiliyatiga ega, 65% i esa guruh ichida faol hamkorlik qiladi. Shuningdek, ichki motivatsiya darajasi yuqori bo'lgan talabalar "Seven Skills" bo'yicha yuqori natijalarni ko'rsatgan. Tahlil shuni ko'rsatdiki, masofaviy ta'lim jarayoni pedagogik interaktiv metodlar va psixologik rag'batlantirish orqali "Seven Skills"ni samarali rivojlantirish imkonini beradi. Empirik ma'lumotlar tanqidiy fikrlash, kommunikatsiya, hamkorlik, ijodkorlik va raqamli savodxonlik kabi kompetensiyalarning yuqori darajada shakllanganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, pedagogik-psixologik omillar, xususan, motivatsiya va o'zini o'zi boshqarish qobiliyati masofaviy ta'lim samaradorligini belgilovchi asosiy faktorlardan biri ekanligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, masofaviy ta'lim jarayoni talabalarda "Seven Skills"ni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash va muammolarni hal etish ko'nikmalari masofaviy loyiha faoliyati va interaktiv mashg'ulotlar orqali sezilarli darajada rivojlangan. Ushbu natijalar Voogt va Roblin (2012) hamda Fadel va boshq. (2015) tadqiqotlari bilan uyg'unlashadi, ularda XXI asr kompetensiyalarini shakllantirishda faol o'rganish va loyiha asosida yondashuvning muhimligi ta'kidlangan. Kommunikatsiya va hamkorlik ko'nikmalari bilan bog'liq natijalar shuni ko'rsatdiki, masofaviy ta'lim interaktiv forumlar, guruh loyihalari va videokonferensiyalar orqali talabalarni bir-biri bilan samarali hamkorlik qilishga rag'batlantiradi. Kirkwood va Price (2014) tadqiqotida ham qayd etilganidek, raqamli o'quv muhiti hamkorlikni rivojlantirish va talabalarning ijtimoiy kompetensiyalarini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogik kuzatuvlar guruh ichidagi vazifalar va virtual muhitdagi hamkorlik talabalarda ijtimoiy moslashuvchanlik hamda jamoada faol ishtirok etish qobiliyatini kuchaytirishini ko'rsatdi. Ijodkorlik va innovatsion yondashuvni rivojlantirish masofaviy ta'lim sharoitida loyiha ishlari va portfoliolar orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqot natijalari talabalarning ijodiy fikrlash qobiliyati hamda yangi g'oyalarni yaratish darajasi yuqori ekanligini ko'rsatdi, bu esa Salmon (2013) hamda Garrison va Vaughan (2013) tadqiqotlari bilan mos keladi. Ushbu mualliflar masofaviy ta'lim jarayonida talabalar ijodkorligini rag'batlantirish uchun interaktiv va loyiha asosidagi metodlardan foydalanishni tavsiya etadilar. Raqamli savodxonlik bo'yicha olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarning aksariyati turli raqamli platformalarda faol ishlash va texnologiyalardan samarali



foydalanish qobiliyatiga ega. Ushbu holat Huang va boshq. (2020) tadqiqoti natijalari bilan mos keladi, unda COVID-19 davrida oliy ta'limda masofaviy ta'lim orqali raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish samaradorligi tahlil qilingan. Psixologik jihatlarni tahlil qilish jarayonida tadqiqot shuni ko'rsatdiki, talabalar motivatsiyasi, o'zini o'zi boshqarish va ijtimoiy o'zaro ta'sir ko'rsatkichlari "Seven Skills"ni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalarning ichki motivatsiyasi yuqori bo'lgan hollarda tanqidiy fikrlash, hamkorlik va ijodkorlik ko'nikmalari samarali rivojlangan.

Ushbu xulosalar Fadel va boshq. (2015) tadqiqoti natijalari bilan uyg'unlashadi, unda motivatsiya va o'zini o'zi boshqarish kompetensiyalarni rivojlantirishda asosiy omil sifatida ko'rsatilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, masofaviy ta'lim jarayonida pedagogik va psixologik omillarni uyg'unlashtirish talabalarning "Seven Skills"ni tizimli rivojlantirishda eng samarali strategiyalardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, talabalarning individual xususiyatlari, motivatsiyasi va texnologiyalardan foydalanish tajribasi masofaviy ta'lim samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Muhokama yakunida aytish mumkinki, masofaviy ta'lim nafaqat oliy ta'lim sifatini oshirish, balki talabalarni zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh, ijodiy va mustaqil fikrlovchi mutaxassislar sifatida tayyorlash imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari pedagogik va psixologik strategiyalarni ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi hamda masofaviy ta'limni optimallashtirish va XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga zamin yaratadi. Masofaviy ta'lim kontekstida "Seven Skills" quyidagi nazariy yondashuvlar orqali izohlanadi:

- konstruktivistik yondashuv – bilim o'quvchi tomonidan mustaqil va faol ravishda quriladi; faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv – kompetensiyalar real muammolarni hal qilish jarayonida shakllanadi;
- o'zini o'zi boshqarish nazariyasi (Self-regulated learning) – o'quvchining rejalashtirish, monitoring va refleksiya ko'nikmalari muhim o'rin tutadi.

5-jadval: Seven Skills komponentlarining masofaviy ta'limdagi pedagogik tavsifi jadvalda

Seven Skills komponenti	Masofaviy ta'limdagi rivojlanish mexanizmlari
Tanqidiy fikrlash	Muammoli vaziyatlar, case-study, debatlar
Ijodkorlik	Raqamli loyiha, multimediya topshiriqlar
Muloqot	Forum, videokonferensiya, chat
Hamkorlik	Jamoaviy loyiha, peer-learning
Muammoni hal qilish	Amaliy topshiriqlar, simulyatsiya
Moslashuvchanlik	Individual ta'lim trayektoriyasi
O'z-o'zini boshqarish	Refleksiya kundaliklari, self-assessment

Masofaviy ta'lim jarayonida "Seven Skills"ni rivojlantirish pedagogik va psixologik omillarning uzviy uyg'unligiga asoslanadi, ta'lim jarayonini maqsadli tashkil etish, raqamli texnologiyalardan oqilona foydalanish hamda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini inobatga olish zamonaviy ta'lim sifatini ta'minlashning muhim sharti hisoblanadi. Zamonaviy ta'lim tizimi globallashtirish, raqamlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida tubdan transformatsiyalanib, masofaviy ta'lim shakllarining keng joriy etilishi ta'lim mazmuni, metodlari va natijalariga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'lim faqat bilimlarni uzatish vositasi bo'lib qolmay, balki o'quvchilarda XXI asrga xos universal kompetensiyalarni, xususan "Seven Skills" (7S) modeliga kiruvchi tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, muloqot, hamkorlik, muammolarni hal qilish, moslashuvchanlik hamda o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun samarali pedagogik muhit yaratish imkonini beradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, masofaviy ta'lim sharoitida "Seven Skills" kompetensiyalarini rivojlantirish kompetensiyaviy yondashuv, loyiha va muammoga asoslangan ta'lim metodlari, interfaol mashg'ulotlar hamda raqamli ta'lim platformalaridan oqilona foydalanish bilan bir qatorda o'quvchilarning ichki motivatsiyasi, mustaqil ta'limga tayyorligi va o'zini o'zi boshqarish qobiliyatlariga bevosita bog'liq bo'lib, refleksiya, o'zini baholash va feedback mexanizmlarining tizimli qo'llanilishi mas'uliyat hissini oshirishi va shaxsiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Shuningdek, psixologik jihatdan qulay va qo'llab-quvvatlovchi virtual muhit yaratilgan hollarda o'quvchilarning ta'lim jarayoniga jalb etilganlik darajasi ortib, ijodkorlik va moslashuvchanlik ko'nikmalarining shakllanishi tezlashishi kuzatilgan.



Shu bilan birga, bevosita muloqotning cheklanganligi, emotsional aloqa yetishmasligi va o'zini o'zi boshqarish darajasi past bo'lgan holatlarda kompetensiyalarning rivojlanishi sustlashishi mumkinligi aniqlanib, masofaviy ta'lim jarayonida pedagogik va psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, individual yondashuvni ta'minlash hamda motivatsiyani rag'batlantiruvchi usullardan foydalanish zarurligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari masofaviy ta'lim jarayoni talabalar shaxsida XXI asr ko'nikmalari – "Seven Skills"ni shakllantirish va rivojlantirish uchun samarali pedagogik platforma bo'la olishini, bunda ta'lim jarayonini maqsadli va tizimli tashkil etish, raqamli texnologiyalardan pedagogik maqsadlarga muvofiq foydalanish hamda shaxsiy-psixologik xususiyatlarni inobatga olish hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini ilmiy jihatdan tasdiqladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, masofaviy ta'lim jarayoni talabalarda "Seven Skills"ni tizimli va integrativ yondashuv asosida shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, pedagogik va psixologik omillarni uyg'unlashtirish talabalarning raqamli savodxonlik, ijodiy fikrlash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu esa oliy ta'lim muassasalari uchun masofaviy ta'lim samaradorligini oshirish va XXI asr ko'nikmalariga ega raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundan iboratki, olingan natijalar oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'lim jarayonini optimallashtirish, pedagogik interaktiv metodlarni qo'llash hamda talabalarni motivatsiya qilish orqali "Seven Skills"ni samarali rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot xalqaro va milliy standartlarga muvofiq raqamli ta'lim jarayonlarini modernizatsiya qilish, shuningdek, pedagogik va psixologik strategiyalarni uyg'unlashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, masofaviy ta'lim jarayoni XXI asr ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita bo'lib, uning pedagogik va psixologik asoslarini tizimli tahlil qilish oliy ta'lim sifatini oshirish hamda raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash jarayonida muhim omil sifatida xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari nafaqat ilmiy-amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishda, balki masofaviy ta'lim strategiyasini takomillashtirish, talabalarda ijodiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha asos sifatida ham foydalanilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva M. A. Zamonaviy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 176 b.
2. Qalandarova O'. Y. Ta'lim-tarbiya jarayonida kompetensiyalar va ularni shakllantirishda fanlararo bog'lanishlardan foydalanish: dis. ... ped. fan. doktori (PhD). – Toshkent, 2022. – 148 b.
3. Karimova G. Malakali kadrlar tayyorlashda Seven Skills (7S) modelining pedagogik ahamiyati // Jamiyat va innovatsiyalar. – 2022. – Maxsus son. – B. 45–52.
4. Xolmatova D. R. Masofaviy ta'lim sharoitida o'quvchilarning mustaqil ta'lim kompetensiyalarini rivojlantirish // Pedagogik ta'lim. – 2023. – № 3. – B. 67–72.
5. Zimnyaya I. A. Kompetentnostnyy podxod v obrazovanii. – Moskva: Logos, 2019. – 240 s.
6. Khutorskoy A. V. Kompetentsii v sovremenno obrazovanii. – Moskva: Narodnoe obrazovanie, 2020. – 312 s.
7. Polat E. S. Distantсионное обучение: теория и практика. – Moskva: Akademiya, 2018. – 336 s.
8. Andreev A. A. Psikhologiya distantsionnogo obucheniya. – Sankt-Peterburg: Piter, 2021. – 224 s.
9. OECD. Future of Education and Skills 2030. – Paris: OECD Publishing, 2019.
10. UNESCO. Education in a Post-COVID World: Nine Ideas for Public Action. – Paris: UNESCO, 2021.
11. World Economic Forum. The Future of Jobs Report. – Geneva, 2023.
12. Trilling B., Fadel C. 21st Century Skills: Learning for Life in Our Times. – San Francisco: Jossey-Bass, 2019.
13. Zimmerman B. J. Self-Regulated Learning and Academic Achievement // Educational Psychologist. – 2002. – Vol. 37(2). – P. 65–75.
14. Garrison D. R., Anderson T., Archer W. Critical Inquiry in a Text-Based Environment: Computer Conferencing in Higher Education // The Internet and Higher Education. – 2000. – Vol. 2(2–3). – P. 87–105.
15. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology. – 2005. – Vol. 2(1). – P. 3–10.
16. Anderson T., Dron J. Teaching Crowds: Learning and Social Media. – Edmonton: AU Press, 2017. – Masofaviy ta'limda ijtimoiy o'zaro ta'sir va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy manba.
17. Voogt J., Roblin N. P. 21st-century skills: Review of the literature // Journal of Computer Assisted Learning. – 2012. – Vol. 28(3). – P. 235–248. – "Seven Skills" va XXI asr ko'nikmalari rivoji bo'yicha tahliliy maqola.
18. Huang R. H., Liu D. J., Tili A., Yang J. F., Wang H. H. Guidance on flexible online learning for higher education during COVID-19. – Beijing: Smart Learning Institute, 2020. – COVID-19 davrida oliy ta'limda masofaviy ta'lim jarayoni va pedagogik asoslar.



19. Kirkwood A., Price L. Technology-enhanced learning and teaching in higher education: What is 'enhanced' and how do we know? // Learning, Media and Technology. – 2014. – Vol. 39(1). – P. 6–36. – Raqamli ta'lim va pedagogik samaradorlikning nazariy asoslari.
20. OECD. The Future of Education and Skills: Education 2030. – Paris: OECD Publishing, 2018. – XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha xalqaro standartlar va tavsiyalar.
21. Salmon G. E-tivities: The Key to Active Online Learning. – London: Routledge, 2013. – Masofaviy o'qitishda interaktiv metodlar va "Seven Skills"ni rivojlantirishga amaliy tavsiyalar.
22. Fadel C., Bialik M., Trilling B. Four-Dimensional Education: The Competencies Learners Need to Succeed. – Boston: Center for Curriculum Redesign, 2015. – Tanqidiy fikrlash, ijodkorlik, kommunikatsiya va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha manba.
23. Garrison D. R., Vaughan N. D. Blended Learning in Higher Education: Framework, Principles, and Guidelines. – San Francisco: Jossey-Bass, 2013. – Blended learning va masofaviy ta'limda pedagogik hamda psixologik yondashuvlar.
24. Zhou M., Brown D. Educational Learning Theories. 2nd ed. – Charlotte, NC: Information Age Publishing, 2015. – Ta'lim nazariyasi, o'zini o'zi boshqarish va motivatsiya masalalari bo'yicha manba.
25. UNESCO. Distance Learning Solutions for Higher Education. – Paris: UNESCO, 2020. – Masofaviy ta'lim texnologiyalari va pedagogik-psixologik asoslar bo'yicha xalqaro tavsiyalar.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.